



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 342.534(045)(575.1)

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI QARORLARINI QABUL QILISH OCHIQLIGINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI

Parpixo'jayev Nusratullo Nig'matullo o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: n.parpihodjaev@adliya.uz
ORCID: 0000-0002-7924-0271

Annotatsiya. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, keng jamoatchilikni O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning amalga oshirish jarayoni haqida xabardor etish, mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunga qadar fuqarolarning mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olish va ulardan foydalanish huquqini amalga oshirishni normativ-huquqiy tartibga solish masalalari ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Shuning uchun, mahalliy hokimiyat faoliyatining ochiqligiga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining konseptual asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Xalq deputatlari Kengashlarining faoliyatiga doir axborotlardan foydalanish, oshkor qilish, ular bilan tanishish uchun axborot olish manbalarining ochiqligini ta'minlash hamda axborotlarni keng jamoatchilikka taqdim etishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq deputatlari Kengashi, qarorlar qabul qilishning ochiqligi, mahalliy Kengashlar faoliyatiga doir axborot, axborot olish manbalarining ochiqligi.

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОТКРЫТОСТИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ КЕНГАШАМИ НАРОДНЫХ ДЕПУТАТОВ

Парпихужаев Нусратулло Нигматулло угли,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Обеспечение открытости деятельности органов государственной власти и управления, информирование широкой общественности о процессе осуществления политических, экономических, социальных реформ в Узбекистане является одним из важнейших направлений демократического обновления и модернизации страны, построения сильного гражданского общества. На сегодняшний день вопросы нормативно-правового регулирования реализации права граждан на получение и использование информации о деятельности органов местного самоуправления с научной стороны недостаточно изучены. В этой связи важное значение приобретают создание концептуальных основ принимаемых законодательных актов для правового регулирования общественных отношений, касающиеся открытости деятельности органов местного самоуправления. В данной статье даны заключения по совершенствованию правовых механизмов предоставления широкой общественности информации и обеспечения доступности источников получения информации для использования, раскрытия, ознакомления с информацией, касающейся деятельности Кенгашей народных депутатов.

Ключевые слова: Кенгаши народных депутатов, открытость принятия решений, информация о деятельности местных Кенгашей, открытость источников получения информации.

LEGAL ISSUES OF ENSURING OPENNESS OF DECISION-MAKING BY COUNCILS OF PEOPLE'S DEPUTIES

Parpikhuzhaev Nusratullo Nigmatullo ugli,
Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. Ensuring the openness of the activities of state authorities and management, and informing the general public about the process of implementing political, economic, and social reforms in Uzbekistan is one of the most important directions for democratic renewal and modernization of the country, building a strong civil society. To date, the issues of regulatory regulation of the realization of the right of citizens to receive and use information about the activities of local government bodies have not been sufficiently studied from the scientific point of view. In this regard, it is important to create the conceptual foundations of the adopted legislative acts for the legal regulation of public relations concerning the openness of the activities of local government bodies. This article provides conclusions on the use of information on the activities of the Councils of People's Deputies, the disclosure of information sources for access to them, as well as the improvement of legal mechanisms for providing information to the general public.

Keywords: Council of People's Deputies, openness of decision-making, information on the activities of local councils, openness of sources of information.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati uning manfaatini emas, avvalo, fuqarolarning huquq va erkinligini ta'minlashga va himoyalashga, shuningdek jamiyatimiz hayotida ustuvor o'ringa ko'tarishga qaratilgandir. Konstitusiyamizning muqaddimasida e'lon qilinganidek, O'zbekiston Respublikasi, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish maqsadini ko'zlaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga asosan inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institusional asoslarini zamon talablariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilangan:

Joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish.

mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, shu jumladan hokimlarni saylash tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish;

mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha "vakolatlar reyestri"ni shakllantirish;

mahalliy boshqaruv faoliyatiga axborot texnologiyalarni keng joriy qilish, hududlarning 40 dan ortiq, jumladan transport, infratuzilma, ijtimoiy va boshqa sohalar bo'yicha ma'lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarini ishga tushirish kabilar.

Alohida ta'kidlash joizki, hozirgi globallashuv davrida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni xalqimiz va xalqaro hamjamiyatga o'z vaqtida yetkazish, fuqarolarimizning davlatga va jamiyat institutlariga nisbatan munosabatlarini xolis va haqqoniy aks ettirish, qolaversa, jamoatchilik fikrini shakllantirishdek muhim va mas'uliyatli ishlar mamlakatdagi axborot tizimining yetarli darajada shakllanganligi va uning zamonaviyligi hamda davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi bilan bog'liq albatta.

Shu munosabat bilan 2014-yil 5-mayda O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonunning asosiy vazifalari sifatida:

jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan foydalanishini ta'minlash;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olish huquqining kafolatlarini ta'minlash;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar uchun mas'uliyatini oshirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni tarqatish tartibini belgilash kabilar belgilandi.

Xususan davlat hokimiyati organlari tizimida quyi bo'g'indagi mahalliy ijro va vakillik organlari o'z faoliyati davomida fuqarolar bilan bevosita munosabatga kirishib turishi, ular zimmasiga xalqimizning manfaatlarini himoya qilish borasida alohida mas'uliyat yuklatilishida ma'lum bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" deb belgilab qo'yilgan.

Davlatimizning eng birinchi vazifasi xalq irodasini ifoda etish, xalq manfaatlarini himoya qilish va ularga xizmat qilishdir. O'zbekistonning bu sohadagi tajribasi xalqaro maydonda e'tirof etilgan umuminsoniy qadriyatlar va qoidalarga asoslanadi.

Bu borada davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, ijtimoiy sheriklik, markazda hamda joylarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat va hududiy dasturlarini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirildi.

Bugungi kunda Xalq deputatlari Kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashni ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish dolzarbdir. Chunki Xalq deputatlari Kengashlari qarorlarini qabul qilish jarayonlarining ochiqligini ta'minlashni tadqiq qilish va takomillashtirish davlat boshqaruvida qarorlarning ijrosini nazorat etishda alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomalarida "So'nggi 4 yilda barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi... Amaldagi nazorat tizimi esa ko'proq formal tusga ega bo'lib, ijroni tashkil etishdagi muammolarni aniqlash va hal qilishga yo'naltirilmayapti. Shuning uchun kelgusi yilda bu borada yangi ish tizimi joriy etiladi" deb ta'kidlangan.

Shuningdek, murojaatnomada davlar rahbari "Har bir tuman va shahar hokimi bir oy muddatda o'z hududida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi bo'yicha har chorakda mahalliy Kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi zarur. Bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezoniga aylanishi kerak" ekanligiga alohida e'tibor qaratgan [1, 9-b.].

Xususan davlar hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq va shaffofligini ta'minlash masalalari bugungi kunda keng tahlil qilingan mavzulardan biri sanaladi. Bugungi kunda xorijiy olimlarning ko'pchiligi mazkur masalada bir qator tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Jumladan, Antonio F. Tavares hamda Nuno F. da Cruzning olib borgan ilmiy tadqiqotlariga ko'ra davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida shaffoflik fuqarolarga, ommaviy axborot vositalariga, monitoring organlariga va boshqa manfaatdor tomonlarning ma'lumotlarni topish, qayta ishlash va qayta foydalanishga sharoit yaratish ularning hisobdorligini ta'minlaydi. Shu bois fuqarolarga siyosiy vakillar, qarorlar qabul qilish jarayonlari va natijalari to'g'risida o'z vaqtida ma'lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Shunga qaramay, davlat yoki hukumat organlarida shaffoflik darajasi ko'pincha sifatsiz bo'ladi [2].

Shuningdek Juan C. Garrido-Rodríguez, Antonio M. Lopez-Hernandez hamda Jose L. Zafra-Gomezlar o'zlarining ilmiy qarashlarida davlat organlari faoliyatining shaffofligi – ularning fuqarolarning huquq

va qonuniy manfaatlariga daxldor tegishli ma'lumotlarni to'liq va o'z vaqtida taqdim etish uchun barcha harakatlarni qulay tarzda onlayn e'lon qilinishidir. Bunda davlat organlarining veb-saytlari muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar [3].

Bundan tashqari Nilay Yavuz Eric hamda W.Welchlarning fikricha, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida oshkorlik, hisobdorlik va jamoatchilik ishtirokini oshirish, fuqarolar va tashkilotlarga axborotni yanada samaraliroq va tezkor yetkazishda axborot kommunikatsiya texnologilarini keng miqyosda joriy qilish bugungi kunda dolzarb ekanligini keltirib o'tishgan [4].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash maqsadida ularning rasmiy veb-saytlarini normativ-huquqiy hujjatlar e'lon qilinadigan rasmiy manbalar qatoriga qo'shish, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan qo'shimchalar kiritish shuningdek ularning faoliyatiga oid axborotlardan foydalanishni cheklaydigan va monelik qiladigan xatti-harakatlari uchun yuridik javobgarlikni belgilash ayniqsa, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilayotgan qonun hujjatlaridagi axborotlarning haqiqiy va to'liqligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalarga yechim topishga harakat qilindi.

Mazkur huquqiy masalalarga yechim sifatida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, O'zbekiston qonunchiligidagi bo'shliqlarni to'ldirish bo'yicha takliflar ilgari surildi. Demak, ushbu maqola O'zbekistonda Xalq deputatlari Kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashni konseptual, nazariy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy -huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Xususan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 390-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga "E-qaror" elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan 2021-yil 1-iyuldan boshlab huquqiy eksperiment natijalari asosida "E-qaror" elektron tizimi respublikaning barcha darajadagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida joriy etildi. Shunga ko'ra, bugungi kunda barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish, ro'yxatga olish va e'lon qilish "E-qaror" elektron tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Mazkur tizimni chetlab o'tgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli qarorlari va farmoyishlarini qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek endilikda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarni davlat hisobiga olish "E-qaror" elektron tizimi orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari qaror bilan Adliya vazirligiga qarorlarni faqat "E-qaror" elektron tizimi orqali qabul qilish va e'lon qilish jarayonlarining doimiy monitoringini olib borish vazifasi yuklandi.

Adliya organlari tomonidan "E-qaror" elektron tizimi orqali o'tkazilgan monitoring natijasida hokimlarning 1 100 dan ortiq qonunchilik hujjatlariga zid bo'lgan qarorlari aniqlanib, ularni qonunchilik hujjatlariga muvofiqashtirish yoki bekor qilish yuzasidan tegishli ta'sir choralari qo'llanildi. Ta'kidlash joizki mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga "E-qaror" elektron tizimining joriy qilinishi ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlar bilan barcha fuqarolar va OAV vakillari, keng jamoatchilik tanishish imkoniyatini yaratdi. Bu esa o'z navbatida hokimlikning norma ijodkorligi jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga, mavjud qonun buzilishlarga tezkor munosabat bildirishga zamin yaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, "E-qaror" elektron tizimining joriy qilinishi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, mahalliy davlat hokimiyati organlari ikkiga mahalliy ijro hamda mahalliy vakillik organlariga bo'linadi.

Professor O. Xusanovning ilmiy qarashlariga ko'ra mahalliy davlat hokimiyati organlari mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishi viloyat, tuman va shahar pog'onalarida faoliyat ko'rsatadi. Ular davlat hokimiyatining vakillik organlari va ijro hokimiyati organlari ko'rinishida mavjud [5, 435-b.].

Mahalliy hokimiyat organlarining tizimi deganda viloyat, tuman, shaharlarda tashkil qilinadigan davlat hokimiyatining vakillik organlari – xalq deputatlari Kengashlari va ijroiya hokimiyat organlari – hokimliklar yig'indisiga aytiladi. Bu tizimga kiruvchi vakillik hokimiyat organlari bir-biridan mustaqil, hamkorlik asosida tashkil qilinsa va faoliyat yuritrsa, ijro hokimiyati organlari – hokimlar vertikal bo'ysunish asosida tashkil topadi va faoliyat yuritadi.

Shuningdek, professor Sh.Asadovning fikricha, xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar mahalliy davlat hokimiyati organlari bo'lib, joylarda davlat hokimiyatini amalga oshiradi va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarni mustaqil ravishda hal qila oladi.[6, 12-b.]

Bizning fikrimizcha, vakillik hokimiyati organlari, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarning xalq deputatlari Kengashlaridan, ijro hokimiyati organlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar hokimlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasiga asosan viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir.

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi.

Shuningdek, Qonunning 6-moddasiga ko'ra Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi qarorlar qabul qiladi. Viloyat, tuman, shahar hokimi qarorlar qabul qiladi va farmoyishlar chiqaradi.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, basharti ana shu hujjatlarda o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa. Xalq deputatlari Kengashining va hokimning normativ-huquqiy tuzdagi hujjatlari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 31-iyuldagi SQ-360-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti"ning 2-moddasiga asosan Mahalliy Kengash faoliyati masalalarni jamoa bo'lib va erkin muhokama qilishga, oshkoralikka, jamoatchilik fikrini hisobga olishga asoslanadi.

Qayd etish joizki, Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Chunki Kengashlar kollegial organ sifatida kvorum

bo'lgandagini vakolatli hisoblanadi. Shu bois mazkur qarorlar deputatlar umumiy sonining ko'pchiligi ovozi bilan qabul qilinadi.

Umuman olganda, mahalliy Kengashlarning qarorlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati yuqori turuvchi organlarining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyasida qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Zarur hollarda Xalq deputatlari Kengashi qaroriga asosan yashirin ovoz berish o'tkazilishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari normativ tusdagi va normativ xususiyatga ega bo'lmagan qarorlar qabul qiladi. Normativ xususiyatga ega bo'lmagan qarorlar raislik qiluvchi tomonidan imzolangan vaqtdan e'tiboran, agar hujjatning o'zida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kuchga kiradi.

Qonunchilikka ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kirishining asosiy talabi bu ularning rasmiy nashrlarda, ya'ni mahalliy davlat hokimiyati organi muassisligida ta'sis etilgan gazetalarda e'lon qilinishidir. E'tiborli jihat shundan iboratki, qarorda kechroq muddat nazarda tutilgan bo'lsa, u mana shu muddatdan kuchga kiradi [7, 67-b.].

Aytish kerakki, ayrim hollarda amaliyotda mahalliy Kengashlarning normativ-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan qarorlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinmasdan, ijroga qaratilayotgan holatlarni uchratish mumkin. Yuqorida nomi qayd etilgan Qonunga muvofiq, rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hech kim hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Mahalliy Kengashlarning bunday qarorlari bayon tarzida rasmiy e'lon qilinishiga yo'l qo'yilmaydi va rasmiy e'lon qilinganda uning barcha rekvizitlari ko'rsatiladi. Shuningdek mahalliy Kengashlarning normativ-huquqiy huquqiy xususiyatdagi qarorlari matnlarining elektron shakllari Kengashlarning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi shart.

Xalq deputatlari Kengashining qarorlari uning doimiy komissiyalariga, hokimlikning bo'limlari, boshqarmalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari, tegishli davlat organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslarga va quyi turuvchi hokimliklarga tarqatish uchun devonxonaga topshiriladi. Normativ-huquqiy hujjat loyahasini belgilangan tartibda qabul qilishning o'zi uning me'yoriy (umummajburiy) xususiyatga ega bo'lishi uchun yetarli emas. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat rasmiy kuchga ega bo'lishi va tegishli tarzda yuridik natijalarni keltirishi uchun bunday hujjat e'lon qilinishi zarur.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 20-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 38-moddasi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerakligini ko'zda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat rasmiy manbalarda (ommaviy axborot vositalarida) nashr qilish orqali e'lon qilinishi kerak. Qo'shimcha tarzda tegishli ma'muriy- hududiy tuzilmaning aholisini u bilan tanishishiga ochiq imkoniyatni ta'minlovchi boshqa yo'llar bilan ham ushbu hujjatni e'lon qilish mumkin. Shuningdek Qonunda mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari matnlarining elektron shakllari ularni qabul qilgan organlarning rasmiy veb-saytlarida normativ-huquqiy hujjat rasmiy e'lon qilinganidan keyin bir kun ichida e'lon qilinishi shartligi ko'zda tutilgan.

AQSHning "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'ricida"gi qonuniga muvofiq normativ tusdagi qaror loyihalarni "e'lon qilish va sharhlar olish" sharti belgilangan bo'lib, qonunda Federal idora daqtab qabul qilinishi rejalashtirilgan qonun osti hujjat loyihasi to'g'risidagi xabarni har kunlik rasmiy nashr bo'lgan Federal registrda e'lon qiladi. Qaror loyihasi bo'yicha kelib tushgan barcha takliflarni inobatga olgan holda qabul qilingan normativ tusdagi hujjatning matni yana Federal registrda bosib chiqariladi. Jamoatchilikning takliflari inobatga olinmasdan, shuningdek, yetarli darajada asoslantirilmagan tarzda qabul qilingan normativ huquqiy akt sud tomonidan bekor qilinadi [8, 26-b.].

Xorijiy amaliyot ham bir qator davlatlarda (Belgiya, Daniya, Ispaniya, Portugaliya, Vengriya, Rossiya) elektron manbalar rasmiy manbaga tenglashtirilganligini ko'rsatdi.

Xususan, Rossiya Federasiyasining 2003-yil 6-oktabrdagi 131-son "Rossiya Federasiyasining mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etishning umumiy tamoyillari to'g'risida"gi Qonunida, munitsipal organlar qarorlarini e'lon qilish tartibi mazkur organlar tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan.

Vologodonsk shahri Ustavida munitsipal normativ-huquqiy hujjatning rasmiy e'lon qilish manbasi sifatida shahar ma'muriyatining rasmiy sayti bo'lgan www.volgodonskgorod.ru sayti ko'rsatilgan.[9]

Kanadaning "Rasmiy xabarnomalarni nashr etish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra mahalliy hokimliklarning e'lon qilish talab qilinadigan qarorlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib o'rnatilmagan bo'lsa, "The Royal Gazette"da e'lon qilinadi [10].

Kanadaning Ontanario shtatining "Rasmiy xabarnomalarni nashr etish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra esa rasmiy qarorlar ingliz tilidagi The Ontario Gazette va fransuz tilidagi Gazette de l'Ontario larda e'lon qilinadi [11].

Qozog'iston Respublikasining 2016-yil 6-apreldagi "Huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, hokim qarorlari Qozog'iston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari ma'lumotlari nazorati bazasida (bankida) rasman e'lon qilinadi [12].

Belarussiya Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-feraldagi farmoniga muvofiq Milliy huquqiy internet portali barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e'lon qilish manbasi sifatida belgilangan.

Shuningdek, Avstriya, Belgiya, Vengriya, Gollandiya va Portugaliya kabi davlatlarda qonun hujjatlarini elektron ravishda tarqatish ularni e'lon qilishning yagona rasmiy manbasi hisoblanadi [13].

Yaponiyada qonun hujjatlari, shu jumladan mahalliy hokimliklarning hujjatlari ham "Official Gazette" nashrida e'lon qilib boriladi. Gazeta bir oyda bir marotaba qog'oz shaklda hamda elektron tarzda tarqatiladi [14].

Xulosalar

Ko'rinib turibdiki, xorijiy davlatlar tajribalaridan kelib chiqib va mavjud amaliyotdagi muammolarni tahlil qilgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash maqsadida ularning rasmiy veb-saytlarini normativ-huquqiy hujjatlar e'lon qilinadigan rasmiy manbalar qatoriga qo'shish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga doir axborotlardan foydalanish, oshkor qilish, ular bilan tanishish uchun axborot olish manbalarining ochiqligini ta'minlash hamda axborotlarni keng jamoatchilikka taqdim etishning huquqiy mexanizmlari va protsedurasi bo'yicha qonunchilikda normalar belgilanishi shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Shuningdek davlat sirlari va boshqa taqiqlangan axborotlardan tashqari davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslarining faoliyatiga oid axborotlar ochiqligini ta'minlamaslik, ulardan foydalanishni cheklaydigan va monelik qiladigan xatti-harakatlari uchun yuridik javobgarlikni belgilash masalasini ko'rib chiqish kerak.

Ayniqsa, mahalliy davlat hokimiyati oraganlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilayotgan qonun hujjatlarida taqdim etilayotgan axborotning haqqoniyligi hamda axborotning to'liqligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jahonda kechayotgan siyosiy jarayonlarda axborot hurujining ta'siri oshib, undan himoyalanih katta ahamiyatga ega bo'layotganligi, bunday sharoitda jamiyatdagi axborot bo'shliqlarini zudlik bilan bartaraf etish, nafaqat fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, balki ularni hokimiyat organlariga nisbatan ishonchini mustahkamlash asosiy vazifalardan biri bo'lishi hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda fuqarolarning axborotga bo'lgan talabi ortib borayotgani va bu boradagi qat'iy qoidalar va qonunlar tufayli davlat boshqaruvi organlariga oshkoralikni ta'minlash uchun bosim o'tkazmoqda. Natijada, ko'plab davlat organlari va tashkilotlari ommaviy axborotga kirishni osonlashtirish uchun o'zlarining veb-saytlarini yaratdilar. Axborot taqdim etilishini baholash uchun turli tashkilotlar bunday veb-saytlarning shaffofligini o'lchash uchun indeksni ishlab chiqdilar.

REFERENCES

1. President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev Appeal to the Oliy Majlis. December 29, 2020. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4057/>.
2. Antonio F. Tavares., Nuno F. da Cruz. Explaining the transparency of local government websites through a political market framework. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0740624X17302617#/> (accessed 23.10.2018).
3. Juan C. Garrido-Rodríguez., Antonio M.López-Hernández., José L. Zafra-Gómez. The impact of explanatory factors on a bidimensional model of transparency in Spanish local government. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0740624X18301497> (accessed 24.08.2017)
4. Nilay Yavuz Eric., W.Welch. Factors affecting openness of local government websites: Examining the differences across planning, finance and police departments. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0740624X14001233/> (accessed 04.10.2014)
5. Xusanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. // yuridik fanlari doktori, professor M.X.Rustamboyevning umumiy tahriri ostida [Constitutional law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSUL, 2012. 564 p.
6. Mahalliy davlat hokimiyati organlari: O'quv qo'llanma. Ed. O.T. Husanov [Local authorities] Tashkent, TSUL Publishing House, 2012. 163 p.
7. Azizov X., Xayitov X., Yo'ldoshev A. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarini tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslari. / Mas'ul muharrir: prof. O.Xusanov. [Organizational and legal basis for the preparation of decisions of local authorities] Tashkent: Academy of Public Administration of Publishing House, 2019. 92 p.
8. Corntlius. M. Kerwin, Rule-Making: How Government Agencies Write Law and Make policies [Washington, DC: CQ Press 1994], p. 197.
9. Administratsiya goroda Volgodonska [Administration of the city of Volgodonsk] Available at: <http://volgodonskgorod.ru/>.
10. Legislative Assembly of New Brunswick. Available at: <https://www.gnb.ca/legis/bill/FILE/59/2/Bill-31-e.htm/>.
11. Ontario Gazette Act, R.S.O. 1990, c. O.3 Available at: <https://www.ontario.ca/laws/statute/90o03/>.
12. Legal information system of Regulatory Legal Acts of the Republic of Kazakhstan. Available at: <http://adilet.zan.kz/eng/docs/Z980000213/>.
13. Library of Congress. Available at: <https://www.loc.gov/law/foreign-news/article/belarus-official-online-publication-of-legal-acts/>.
14. National Printing Bureau of Japan. Available at: <https://www.npb.go.jp/en/books/kanpo.html/>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.